




## 2021- yil yanvar-oktabr oylari uchun Namangan viloyatidagi qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Namangan viloyatida jami **4437,0** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **109,5 %** ni tashkil etdi.




### 2021- yil yanvar- oktabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2646** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **321** taga oshdi.



### Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		Jamiga nisbatan ulushi % 01.11.2021- yil
	01.11.2020- yil	01.11.2021- yil	
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2325</b>	<b>2646</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	762	860	32,5
tumanlar:			
Mingbuloq	81	80	3,0
Kosonsoy	283	283	10,7
Namangan	127	146	5,5
Norin	110	136	5,1
Pop	89	113	4,3
To'raqo'rg'on	95	117	4,4
Uychi	212	251	9,5
Uchqo'rg'on	140	177	6,7
Chortoq	159	182	6,9
Chust	169	193	7,3
Yangiqo'rg'on	98	108	4,1




**Ma'lumot uchun:** Viloyatdagi soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Namangan shahri (32,5%), Kosonsoy tumani (10,7 %) va Uychi (9,5 %) tumanlarida, hamda eng kam ulushni Mingbuloq tumani (3,0 %), Yangiqo'rg'on tumani (4,1 %), Pop tumani (4,3 %), To'raqo'rg'on (4,4 %) tumanlarida qayd etildi.



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **212,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar- oktabr oyiga nisbatan 119,0 mlrd. so'mga kamaygan bo'lib, 2020- yilning mos davriga 59,0 % ni tashkil etdi.




## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Namanagan shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **62,2 %**) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2021- yil yanvar-oktabr
- 2020- yil yanvar-oktabr

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar- oktabr oylida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **62,9 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-oktabr oyi ko'rsatkichiga nisbatan **3,2 %** punktga ortdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **115,7 %** ni tashkil etgan holda **2788,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.





## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **32,3 %** ni tashkil etdi yoki **1435,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **112,1 %** ni tashkil etdi.






## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 163,9 mlrd. so'm yoki 2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 83,9 % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 4273,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 110,8 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda 3,7 % va 96,3 % ni tashkil etdi.

### IQTSODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)

2021- yil yanvar-oktabr oylarida







**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari  
2021- yil yanvar-oktabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>4437,0</b>	<b>163,9</b>	<b>100</b>	<b>4273,1</b>	<b>100</b>
Namangan sh.	1253,5	13,4	8,2	1240,1	29,1
tumanlar:					
Mingbuloq	167,8	8,3	5,1	159,5	3,7
Kosonsoy	346,0	11,6	7,1	334,4	7,8
Namangan	361,7	9,7	5,9	352,0	8,2
Norin	174,2	6,5	4	167,7	3,9
Pop	302,6	40,3	24,5	262,3	6,1
To'raqo'rg'on	258,5	21,6	13,1	236,9	5,5
Uychi	507,4	12,5	7,6	494,9	11,6
Uchqo'rg'on	265,4	5,5	3,4	259,9	6,1
Chortoq	326,1	15,4	9,4	310,7	7,3
Chust	233,1	6,5	4	226,6	5,3
Yangiqo'rg'on	240,8	12,6	7,7	228,2	5,4

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda






## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-oktabr oylarida

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da</b>
<b>Namangan viloyati</b>	<b>4437,0</b>	<b>109,5</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	1253,5	100,1	28,3
tumanlar:			
Mingbuloq	167,8	147,6	3,8
Kosonsoy	346,0	104,2	7,8
Namangan	361,7	108,8	8,2
Norin	174,2	100,0	3,9
Pop	302,6	101,9	6,8
To'raqo'rg'on	258,5	119,0	5,8
Uychi	507,4	115,9	11,4
Uchqo'rg'on	265,4	118,2	6,0
Chortoq	326,1	124,2	7,3
Chust	233,1	112,7	5,3
Yangiqo'rg'on	240,8	118,8	5,4

2021- yil yanvar-oktabr oylarida boshqa hududlarga nisbatan eng katta hajm Namangan shahar (1253,5 mlrd. so'm) Uychi (507,4 mlrd.so'm), Namangan (361,7 mlrd. so'm), Kosonsoy (346,0 mlrd. so'm), Chortoq (326,1 mlrd. so'm) Pop (302,6 mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.

**2021- yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmda hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)**



Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi